

Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-iyul holatiga viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 33 292 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1-iyul holatiga, birlik	2026-yil 1- iyul holatiga, birlik
Farg'ona viloyati	30 817	33 292
Oltiariq tumani	1 829	2 049
Qo'shtepa tumani	1 076	1 160
Bag'dod tumani	1 126	1 159
Buvayda tumani	1 242	1 254
Beshariq tumani	1 027	1 132
Quva tumani	1 364	1 516
Uchko'prik tumani	1 551	1 692
Rishton tumani	1 273	1 335
So'x tumani	920	995
Toshloq tumani	1 283	1 322
O'zbekiston tumani	1 330	1 449
Farg'ona tumani	1 358	1 524
Dang'ara tumani	1 278	1 364
Furqat tumani	799	760
Yozyovon tumani	1103	1 256
Farg'ona shahar	5 426	6 055
Qo'qon shahar	3 221	3 447
Quvasoy shahar	1 201	1 328
Marg'ilon shahar	2 410	2 495

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



2026- yilning yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida 13 313 ta, sanoatda 6 446 ta, boshqa xizmatlarda 3 841 ta hamda qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 565 ta tashkil etilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni](#)

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-iyunda 3 195 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026-yilning yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida 1 349 ta, sanoatda 541 ta, boshqa xizmatlarda 313 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 226 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni




Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2026-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Farg'ona viloyati	3 311	3 195
Oltiariq tumani	175	170
Qo'shtepa tumani	114	146
Bag'dod tumani	126	124
Buvayda tumani	169	159
Beshariq tumani	137	133
Quva tumani	186	169
Uchko'prik tumani	139	117
Rishton tumani	127	123
So'x tumani	71	87
Toshloq tumani	140	132
O'zbekiston tumani	141	117
Farg'ona tumani	140	137
Dang'ara tumani	101	101
Furqat tumani	109	50
Yozyovon tumani	235	219
Farg'ona shahar	573	577
Qo'qon shahar	313	326
Quvasoy shahar	128	95
Marg'ilon shahar	187	213

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 16 198,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 54,6 % ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 10 116,3 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 83,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 118,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Beshariq tumani (98,4%), O'zbekiston tumani (98,2%) va Quvasoy shahar (97,6%) shahar va tumanlarga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 21 965,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 85,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 165,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Quvasoy shahar (98,9 %), O'zbekiston tumani (97,4 %), Yozyovon tumani (97,4%) va Toshloq tumaniga (96,7%) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 28 137,4 mln so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 92,0% ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 96,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Marg'ilon shaharga (99,8 %), Dang'ara tumani (99,2%), va Furqat tumani (99, %)ga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarish hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarishdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 15 278,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 75,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 126,7% ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Furqat tumani (98,2 %), So'x tumani (89,2 %), Quvasoy shahar (88,7 %) va Oltiariq tumani (87,2 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo



aylanmasidagi ulushi dinamikasi

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 33 595,5 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 76,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 114,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahar (80,0 %), Yozyovon tumani (77,8 %), Qo'qon shahar (71,5%), Quvasoy shahar (69,9 %) va Oltiariq tumani (69,2 %)ga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 259,6 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 54,0 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buvayda tumani – 100,0 %, So'x tumani – 100,0 %, Furqat tumani – 100,0 %, Yozyovon tumani–100,0 %, Marg'ilon shahar - 100,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar- iyunda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 724,2 million AQSH dollarini yoki jami importning 81,9 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yozyovon tumani–100,0 %, Toshloq tumani – 100,0 %, Furqat tumani – 100,0 %, Dang'ara tumani – 100,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-iyunda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,7 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,1% ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,0 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,9 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyun, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,6% ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,8 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyun, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,5% ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

III. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

2026- yilning yanvar-iyunda kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun a'lo deb baholagan korxonalar ulushi 19,2 % ga yetgan.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning ulushi 57,7 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 19,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, iqtisodiy vaziyatini yomon deb hisoblagan korxonalarning ulushi 3,3 % ga yetgan.

Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 45,0 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-iyunida 38,4 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-iyunda 41,0% bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-iyunida 57,7 % ga yetgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyunida 3,6% ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 3,9 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 20,5 % ni, xizmatlarda – 19,8 % ni va sanoatda – 19,4 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 64,1 % ni, sanoatda – 61,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – 24,6 % ni va savdoda – 21,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – 5,9 % ni va savdoda – 3,4 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:

N.Toshqo'ziyev
73 249-00-08 (4030)

Manzil:

